

FONETIKA O'QITISHDA TA'LIMY O'YINLARDAN FOYDALANISH

*Student: Siddiqova Ma'suma Mirzoxidjon qizi*

*Samarkand state institute of foreign languages*

*Group: 21.23*

*Supervisor: Ibadova Nafisa Axmatilloevna*

**ANNOTATSIYA:**

Mazkur maqolada ona tili darslarida fonetika bo'limini o'qitishda ta'limiy o'yinlardan foydalanish haqida fikr-mulohazalar keltirildi.

**ANNOTATION:**

Technology has been studied to help and improve languages learning. Continue to monitor the importance of technology to teachers as a means of facilitating language learning for their students. In language teaching and learning, we have a lot to choose from the world of technology. Technology has always been an important part of teaching and learning environment. This is an important part of teaching profession so that they can use it to make easier for students to learn. Additionally, in this article I will provide some methods which are depends o phonetic syllabus in mother tongue.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim, fonetika, darslik, qizil kartochka, svetafor, tovush

Yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini shakllantirishda, ularda milliy iftixor tuyg'usini tarkib toptirishda ona tilining o'zni beqiyos. Zero birinchi prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek: " Ona tilining buyuk ahamiyati shundaki, u ma'naviyat belgisi sifatida kishilarni yaqin qilib jiplashtiradi". Darhaqiqat, ona tili ma'naviyat belgisi, va bu ma'naviyatni targ'ib etishda ona tili fani o'qituvchilarining o'zni beqiyos. Bugungi kunda har bir fan o'qituvchilari ilg'or tajriba, fan yutuqlari bilan qurollangan bo'lishi kerak.

Ta'lim bosqichlarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish masalasi ta'lim tizimimizda ilmiy nuqtai nazardan hozirgi kunda o'z yechimini kutayotgan dolzarb masalalardan biri sanaladi. Ayniqsa, ona tilini o'rganish jarayonida nutqiy barkamollikni ta'minlashning ilmiy-pedagogik asoslarini yaratish tobora ko'proq hayotiy zaruriyatga aylanib bormoqda.

Ona tilini o'quvchi nutqidagi ahamiyati beqiyos ekan, demak, uni ilmiy nuqtai nazardan o'rganish ham muhimdir. Hayotimizda sodir bo'layotgan buyuk o'zgarishlar, qudratli islohotlar jarayoni, uzluksiz ta'lim tizimidagi innovatsiyalarning shiddatli ravishda jadallashuvi nutq o'stirish, keng mushohada qilish qobiliyatini shakllantirish muammolarini vujudga keltirmoqda.

O'qituvchi ona tili mashg'ulotlarini shunday tashkil etmog'i lozimki, dars jarayonida bajariladigan topshiriqlarning 35-40 foizini yozma topshiriqlar, qolgan qismini og'zaki harakterdagi topshiriqlar tashkil etmog'i lozimi. O'quvchilar muayyan bir mavzuni turli shakllarda bera bilish, o'z fikrini nutq sharoitiga mos ravishda ifodalay olish ko'nikmalarini egallash orqali ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanishi kerak. Demak, eshitish, anglash, mulohaza yuritish, kuzatish, izlanish, sharhlash, qiyoslash, umumiylik va farqlarni aniqlash, hukm (xulosa) chiqarish, aloqadorlikni aniqlash, nutqda qo'llash kabi eng muhim metodik usullardan foydalanish yaxshi natija beradi.

Ona tilini o'qitishda darslikdagi ma'lumotlarin berish bilangina cheklanish ta'lim sifatini ta'minlab bermay qoldi. Shuning uchun bugungi zamon pedagogi turli xil o'qitish usullari orqali o'quvchini mavzuga jalb etishi va DTSdan ko'zlangan maqsadga etishi lozim. Ayniqsa 5-sinfda ona tili fanidan Fonetika va Leksikologiya bo'limlarini o'qitishda biroz murakkabliklar yuzaga kelishi mumkin. Shunda pedagog an'anaviy ta'lim metodlaridan chiqib, noan'anaviy yo'sinda saboqlarni tashkil etishi samarali natija beradi.

### **Masalan,**

“Svetafor” ta'limiy o'yini. Bu o'yinda “Fonetika” bo'limi yuzasidan o'tilganlarni takrorlash darvlarida keng foydalaniladi. O'yinga uch xil, ya'ni svetafor rangidagi kartochkalar hamda savollar uchun mashinalarning aplekasiyasidan foydalanish mumkin. Buning uchun rangli kartochkalar o'quvchilarga tarqatiladi. o'qituvchi savollar yozilgan ko'rgazmani doskaga iladi. Sinf guruhlariga ajratiladi. Guruh a'zolari tartib bilan savollarga javob beradi. Javobni to'g'ri deb hisoblagan o'quvchilar yashil, noto'g'ri deb hisoblaganlar qizil, savolga javob topa olmagan o'quvchilar sariq krtochkani ko'taradilar. Har uchchala guruhga 3 tadan 5 tagacha savol berish mumkin. Har bir sariq kartochkaga bir ball ayirib olinadi. Qizil kartochkada noto'g'ri deb topilgan savolning aniq javobi uchun bir ball qo'yiladi, noto'g'ri javob uchun yarim ball ayirib qolinadi.

Bundan tashqari “Unli tovushlarda lablarning ishtiroki”, “Undoshlarning hosibl bo'lishiga ko'ra farqlanishi”, “Undoshlarning hosil bo'lish o'rni”, “Bo'g'inlarda unli va undoshlar” va h.k. muammolar bo'yicha “Blis” so'rovni o'tkazish mumkin. Bu usul o'quvchilarni dars jarayonida matn bilan ishlashlariga, o'tilgan mavzuni mustahkamlashlariga va yodda saqlab qolishlariga, bilmaganlarini bilib olishlariga, bilganlarini esa qaytarib mustahkamlashlariga, eng asosiysi, o'zlashtirish darajalarini aniqlashi, shu bilan birga butun jamoani baholashda qo'l keladi.

“Davom ettir” ta'limiy o'yini orqali o'quvchilar “Fonetika” bo'limidagi bo'g'inlarni o'rganishga qartilgan saboqlarda, “Leksikologiya” va “Sintaksis” bo'limlarida qo'llanilsa yaxshi samara beradi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarga ochiq bo'g'ilar yoki yopiq bo'g'inlarni beradi.

O'quvchilar berilgan bo'g'inga mos bo'g'in qo'shib, so'z hosil qiladilar.

Bo-, bo'-, ji-, no-, sa-, gi-, za-, bi-va hokazo. Bunda o'quvchilar bobo, bola, Bosit, Boqi, Botir, boxabar, bokira singari so'zlarni belgilashlari mumkin.

Tan-, bek-, tir-, mak-, hukm-va h.k.

Tanbeh, tandir, tansiq, tantana, tanga, tanbal kabi so'zlarni keltirish mumkin.

O'qituvchi hosil qilingan so'zlarni havola etilayotganda birinchi guruh aytgan so'z boshqa guruh tomonidan takrorlanmasligiga e'tibor berishi va bolalarni ham shunga yo'naltirishi kerak. Ana shundagina o'quvchilar darsda e'tiborli, boshqalar fikrini hurmat qiladigan, hamda o'zlariga berilgan topshiriqda o'ziga xoslikka erishishga intiladigan bo'ladilar. Eng asosiysi o'quvchilar bo'g'inni davom ettirishda xotira puchmoqlarida mavjud lug'at boyligiga murojaat qiladi va nutqini ana shu so'zlar bilan boyishiga erishiladi.

Xulosa qilib aytganda har qanday pedagogik texnologiyalarni dars mavzusiga va o'quvchilar moslab qo'llay olish o'qituvchiga bog'liq. Bu esa o'qituvchidan pedagogik mahorat talab etadi. Bundan tashqari ta'limda har bir darsning muvaffaqiyati ko'p jihatdan mashg'ulotni to'g'ri tashkil etishga bog'liqdir. Dars o'qituvchi va o'quvchining ijodiy hamkorligiga asoslanishi lozim. Shundagina o'quvchilar mustaqil erkin fikrlay oladilar, irodalari tarbiyalanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdullayeva M." Ona till o'qitish metodikasi" .T-2017
2. Muhamedova S."Tillarni o'qitishda pedagogik texnologiyadan.T-2015
3. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. –London., 2001: –64-bet.
4. Jalolov J. Chet tili o'qitish metodikasi. –Toshkent., 2012: –48-bet.